

# Virus Etiologiyali Jigar Sirrozida Fibroskan Natijalari

*Shodiyeva Gulzoda Rabimkulovna<sup>1</sup>, Farmanova Shoiri Bekpulatovna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Jigar sirrozi (JS) diagnostikasida jigar biopsiyasi yuqori informativ usul hisoblanadi, biroq bu usul invaziv diagnostik usul hisoblanadi. Jigar elastografiyasi ham jigar to`qimasining morfologik fibroz darajasini baholashda asosiy tashxis usuli hisoblanadi. Jigar elastografiyasi –innovatsion noinvaziv usuli bo`lib, Fibroskan apparatida o`tkaziladi va jigar fibrozi bosqichi hamda steatoz darajasi haqida aniq ma`lumot beradi. Fibroskan – mahsus ultratovush texnologiyasi hisoblanib, jigar to`qimasining qattiqligi va yog`li o`zgarishini aniqlaydi [1]. Ushbu ilmiy tadqiqotda virus etiologiyali JSi bilan hastalangan 50 nafar bemorda Fibroskan natijalari tahlili o`tkazilgan.

**Kalit so`zlar:** jigar sirrozi, fibroz, fibroskan, elastografiya, tashxis usuli.

**Dolzarbli.** Butun dunyo Sog`liqni saqlash Tashkilotining 2024 yil 9 apreldagi ma`lumotlariga ko`ra, yuqumli kasalliklar orasida gepatit 2 o`rinni egallaydi. Ushbu kasallikdan yiliga 1,3 million o`lim holati kuzatilmoqda. Oxirgi ma`lumotlarga ko`ra 187 mamlakatda, 2019 yilda virusli gepatitdan o`lim holati 1,1 millionga ortdi. 2022 yilda 1,3 millionga qadar ortdi, ulardan 83 % gepatit B tufayli va 17 % gepatit C tufayli sodir bo`ldi [2].

Quyida Fibroskan tahlili uchun xos bo`lgan atamalar keltirilgan:

**Fibroz:** jigar to`qimasining chandiqlanishi;

**Jigarning qattiqligi:** uning to`qimasining chandiqlanishi tufayli qattiqlashishi;

**Yog`li degeneratsiya:** jigar to`qimasida yog` to`qimasining ortishi;

**CAP score baholash:** yog`li to`qimasining foizlardagi qiymati.

Fibroz va steatoz alohida baholanadi. Jigar to`qimasining qattiqligi kilopaskalda o`lchanadi (kPa). Normal ko`rsatkich 2 – 7 kPa diapazonida bo`ladi. Jigar kasalliklarida bu ko`rsatkich normadan yuqori bo`ladi. Eng yuqori natija 75 kPa bo`lishi mumkin. 1-jadvalda surunkali gepatit B va gepatit C kasalliklarida Fibroskan natijalari qiymati keltirilgan [3,4].

1-jadval

Kasallik	Jigar qattiqligi o`lchov qiymati	Fibroz bosqichi	Jigar holati
Gepatit B	2–7 kPa	F0–F1	Norma
	8–9 kPa	F2	Jigar to`qimasining kuchsiz chandiqlanishi
	8–11 kPa	F3	Jigar to`qimasida og`ir darajali chandiqlanish
	12 kPa va yuqori	F4	Sirrozo mavjud
Gepatit C	2–7 kPa	F0–F1	Norma
	8–9 kPa	F2	Jigar to`qimasining kuchsiz chandiqlanishi

<sup>1</sup> Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti

<sup>2</sup> Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali shifokori



Kasallik	Jigar qattiqligi o`lchov qiymati	Fibroz bosqichi	Jigar holati
	9-14 kPa	F3	Jigar to`qimasida og`ir darajali chandiqlanish
	14 kPa va yuqori	F4	Sirrozi mavjud

**Tadqiqot maqsadi:** Virus HBV va HCV etiologiyali jigar sirrozi bilan hastalanganlarda Fibroskan tekshiruv natijalarini baholash.

**Tadqiqot usullari va materiallari:** Ilmiy tadqiqot 2024 yilda Samarqand Yuqumli kasalliklar shifoxonasi Gepatologiya bo`limida davolanayotgan 50 nafar bemorda o`tkazildi. Bemorlarning 32 (64 %) tasi ayollar va 18 (36 %) tasi erkak jinsiga mansub bo`lib, ularning yoshi 34 dan 75 yosh oralig`ida edi. O`rtacha yoshi 48,5±0,5 ni tashkil etdi. Barcha bemorlarga klinik, bioximik, genetik-immunologik laboratoriya tahlillari o`tkazildi. Bioximik qon tahlilida bilirubin miqdori, ASAT, ALAT aktivligi, timol sinamasi, prothrombin indeksi aniqlandi. Tashxis qo`yishda HbSAg, Anti HCV, Anti HDV markerlarini aniqlash uchun IFA serologik usuli qo`llandi. Bundan tashqari virusli yuklamanu tekshirish va genotipni aniqlash uchun PSR diagnostikasi qo`llandi. Instrumental tekshiruv usullaridan jigar ultratovush tekshiruv, elastometriya tekshiruv, Fibroskan o`tkazildi. Jigar ultratovush elastometriyasi "Fibroskan" apparat yordamida ("Exosens" kompaniyasi, Fransiya) yordamida aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotda qatnashayotgan bemorlar 2 gurugga ajratildi:

1. guruhga quyidagi tashxisli: Virus HBV etiologiyali jigar sirrozi. HBsAg musbat. Dekompensatsiya bosqichi. Chaild Pyu bo`yicha B sinf. Asorati: Portal gipertenziya. Assit. Splenomegaliya - 29 ta bemorlar kiritildi.
2. guruhga 21 ta bemor - Virus HCV etiologiyali jigar sirrozi. HCV musbat. Subkompensatsiya bosqichi. Chaild Pyu bo`yicha B sinf. Asorati: Portal gipertenziya. Splenomegaliya qamrab olindi.

JS bilan kasallanganlarda komorbid holatlarning mavjudligi, bemor umumiy ahvolidan og`irlashuviga sabab bo`ldi va kompleks davo tadbirlarini qo`llashni taqozo etdi. Komorbidlik bir bemorda etipatogenetik bog`liq bo`lgan yoki birga kechayotgan ikki va ortiq surunkali kasallikning mavjudligi [5,6]. Komorbidlik adabiyotlarda keltirilishicha - multimorbidlik tushunchasiga sinonimdir. Bizning tadqiqotda JS bilan xastalanganlarda hamroh kasalliklardan 4 % Bronxial astma, 7 % surunkali gastrit, 30 % surunkali pankreatit, 67 % surunkali holesistit, 25 % Yurak ishemik kasalligi, Stenokardiya, 9 % qandli diabet II tip aniqlandi [7,8,9].

### Tadqiqot natijalari:

JS kompensatsiya davrida klinik belgilar yaqqol namoyon bo`lmaydi. Bemorlarda umumiy holsizlik belgilari, o`ng qovurg`a ostida og`irlik hissi, dispeptik belgilar, astenovegetativ buzilishlar bezovta qiladi. JS dekomensatsiya davrida teri sariqligi, assit, terida teliangioektaziyalar, tomir yulduzchalari, qizilo`ngach venalarining varikoz kengayishi, portal gipertenziya, splenomegaliya aniqlandi. Ushbu bemorlarda qon bioximik tahlilida umumiy bilirubin va uning fraksiyalarining ortishi, ALAT, ASAT miqdorining ortishi, albumin miqdorining pasayishi, jigar ensefalopatiyasi aniqlandi.

1. guruh Virus HBV etiologiyali jigar sirrozi bilan hastalanganlarda Fibroskan natijasiga ko`ra: 2 ta bemorda F1 ko`rsatkich, 5 ta bemorda - F2, 9 ta bemorda - F3, 13 ta bemorda F4 natija aniqlandi.
2. guruh Virus HCV etiologiyali jigar sirrozi bilan hastalangan 21 ta bemorda Fibroskan natijasiga ko`ra: 4 ta bemorda F1 ko`rsatkich, 6 ta bemorda - F2, 4 ta bemorda - F3, 7 ta bemorda F4 natija aniqlandi.

Ushbu ko`rsatkichlar klinik laborator ko`rsatkichlarga mos keladi. Elastometriya ko`rsatkichi F1, F2 natijada JS kompensatsiya bosqichi aniqlandi.



Hozirgi davrda jigar kasalliklari bo'yicha Evropa assosiasiyasi (EASL) surunkali virusli gepatitni davolashda bevosita ta'sirli viruslarga qarshi dori vositalarini tavsiya qiladi. Davo kursi 12 haftadan 24 haftagacha bo'lib, sirroz mavjud yoki yo'qligiga bog'liqdir [10,11,12].

### Xulosa:

Jigar sirrozi bilan kasallanganlarda Fibroskan tahlili muhim diagnostik tekshirish usuli bo'la oladi. Ushbu usul orqali JS darajasi aniqlanadi, hamda qo'shimcha IFA, virusologik tahlillar natijasiga ko'ra mos davo usullari tavsiya etiladi [13,14]. Diagnostik va davo usullarining o'z vaqtida to'g'ri qo'llanishi JS jadallashuvini bartaraf etadi [15]. Bu esa muhim ijtimoiy, iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lib, bemorlarning sog'ayishi va havfli asoratlar rivojlanishini oldini oladi.

### Adabiyotlar:

1. Rabimkulovna S. G. Value of ultrasonic elastometry in diagnosis of chronic liver diseases. – 2022.
2. Global hepatitis report 2024: action for access in low and middle-income countries. 9 april 2024. World Health Organization.
3. Шодиева Гульзода Рабимкуловна Роль цитокинов у больных циррозом печени вирусной этиологии // Вестник науки и образования. 2020. №10-4 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-tsitokinov-u-bolnyh-tsirrozom-pecheni-virusnoy-etologii>.
4. Bekmuradova M. S., Shodieva G. R. Helicobacter pylori worsening factor of the patient's condition in patients with liver encephalopathy. – 2021.
5. Шодиева Г. Р., Ибрагимова Э. Ф. Коморбидность при бронхиальной астме // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 264-266.
6. РАБИМКУЛОВНА С.Г., ФАРМАНОВНА И.Е., РАДЖАББОЕВНА А.Р. Функциональные нарушения у больных неконтролируемой бронхиальной астмой // JournalNX. – 2021. – Т. 7. – №. 02. – С. 199-201.
7. Shodiyeva, Gulzoda Rabimkulovna, Rustamova, Shaxlo Abduhakimovna, Ibragimova, Elnara Farmanovna BRONXIAL ASTMADA NAFAS TIZIMI OBSTRUKSIYASI VA KARDIOVASKULAR TIZIMDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI // ORIENSS. 2021. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bronxial-astmada-nafas-tizimi-obstruksiyasi-va-kardiovaskulyar-tizimdagi-o-zgarishlarning-o-zaro-bog-liqligi>.
8. Шодиева Гульзода Рабимкуловна, Низомов Бахтиер Уракович Роль функциональной диагностики в оценке степени обструкции дыхательных путей при бронхиальной астме // Наука и образование сегодня. 2020. №5 (52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-funksionalnoy-diagnostiki-v-otsenke-stepeni-obstruksii-dyhatelnyh-putey-pri-bronhialnoy-astme>.
9. Rabimkulovna S. G. Surunkali Obstruktiv Bronxitda Komorbidlik //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 50. – С. 78-80.
10. Shodiyeva G. R., Hikmatova S. JIGAR SIRROZI BILAN HASTALANGANLARDA KLINIK LABORATOR OZGARISHLAR //ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 123-127.
11. Шодиева Г.Р., Зиядуллаев Ш.Х., Ризаев ДЖ.А., Камалов З.С., Рузибакиева М.Р., Кадыров ДЖ.Ф., Ассоциация полиморфизма RS2275913 и хронической инфекции HBV и HCV с циррозом печени у узбекской популяции, *Американский журнал медицины и медицинских наук*, т. 13 № 11, 2023, стр. 1802-1804. doi: 10.5923/j.ajmms.20231311.42.



12. Rabimkulovna S. G. et al. АССОЦИАЦИЯ ПОЛИМОРФИЗМА RS2275913 IL-17 А-ГЕНА ПРИ ЦИРРОЗЕ ПЕЧЕНИ ВИРУСНОЙ ЭТИОЛОГИИ В И С //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 6.
13. Солеева Ситора Шахобовна, Джаббарова Нафиса Мамасолиевна, Шодиева Гульзода Рабимкуловна Место гиполлипидемической терапии в комплексном лечении стабильной стенокардии // International scientific review. 2019. №LXV. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-gipolipidemicheskoy-terapii-v-kompleksnom-lechenii-stabilnoy-stenokardii>.
14. Shoalimova Z. M., Nuritdinova N. B., Shodieva G. R. ОСОБЕННОСТИ ЛЕЧЕНИЯ АНТИТРОМБОТИЧЕСКИМИ И АНТИКОАГУЛЯНТНЫМИ ПРЕПАРАТАМИ У БОЛЬНЫХ С ОСТРОМ КОРОНАРНОМ СИНДРОМОМ БЕЗ ПОДЪЕМА СЕГМЕНТА ST. – 2023.
15. Тошназаров Ш. М. и др. Эффективность дигитализации-дигоксином у больных с хронической сердечной недостаточностью //Фундаментальные основы инновационного развития науки и образования. – 2019. – С. 175-177.

